

Ijtimoiy soha

Mehnat bozori. 2011 yilning 1 yanvar holatiga respublika doimiy aholisining (tezkor malumot) soni 1650,2 ming kishini tashkil qilib, o'tgan 2009 yilga nisbatan tabiiy o'sish hisobidan 0,2 foizga oshdi. Aholining 934,6 ming kishisi, yani 56,6 foizi mehnatga layoqatli kishilarni tashkil etadi. Umuman ish bilan band bo'lganlar soni 580,8 ming kishini tashkil etib, o'tgan 2009 yilga solishtirganda 1,7 foizga o'sdi (9. *Ijtimoiy soha*). 2010 yil davomida mehnat bo'limlariga 48256 fuqaro murojat qilib, o'tgan 2009 yilga nisbatan 917 kishiga yani 1,9 foizga ko'paydi. Ruyxatga olingan fuqarolarning 3253 tasiga ishsizlik maqomi berildi, 2732 ishsiz fuqaroga ishsizlik nafaqasi belgilandi, bu 2009 yil bilan solishtirganda 2478 kishiga kamaygan. Hisobga olinganlarning 92,0 foizi, yani 44395 kishisi mehnat bo'limlari orqali ishga joylashtirildi (*Ishga joylashtirish jadvali*). Respublikada ishsizlik darajasi aholining iqtisodiy faol qismiga nisbatan 7,1 foizni (44,7/625,5) tashkil qiladi (*indikator 13*). Bandlik dasturining bajarilish ko'rsatkichlari bo'yicha yil yakunida 48329 yangi ish o'rinlari yaratildi, bu belgilangan (48118) rejaga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi. Yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha reja barcha shahar va tumanlarda bajarildi. Yaratilgan yangi ish o'rinlarining 85,2 foizi qishloq joylariga to'g'ri kelmoqda. Yangi ish o'rinlarini yaratish dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun respublika bo'yicha 109134,4 mln. so'm mablag' sarflandi. Har bir yaratilgan ish o'rni uchun o'rtacha 2258,2 ming so'm sarflandi (*yangi ish o'rinlari jadvali*). **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi PF-3706 sonli Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 yanvardagi 4-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi 616-sonli qarori** sanoat, boshqa sohadagi yirik korxonalarda va kichik sanoat korxonalarida 2010 yil yakunida 3582 ta kasanachilik ish o'rinlari tashkil etilib, reja (3548) 101,0 foizga bajarildi. Shundan yirik sanoat korxonalarida 735 ta yani reja (721) 101,9 foizga, boshqa sohadagi yirik korxonalarda 1440 ta yani reja (1401) 102,8 foizga va kichik sanoat korxonalarida 1407 ta yani reja (1426) 98,7 foizga bajarildi.

Pensiya taminotini tashkil qilish. 2010 yil yakunida respublika bo'yicha pensiya va nafaqa oluvchilar soni 179,8 ming kishini tashkil qilib, shundan 163,2 ming kishi mehnat pensiyasi, 16,6 ming kishi ijtimoiy nafaqa oluvchilar bo'lib hisoblanadi (9. *Ijtimoiy soha jadvali*). Hisobot davrida 2701 nafar keksalar, pensionerlar va nogironlarga sihatgohlarda davolanish uchun yo'llanmalar berildi, 754 tasiga umumiy narxi 111,3 mln. so'mlik imtiyozli dori-darmonlar, shuningdek 173 tasiga nogironlar aravachalari, 72 tasiga eshitish moslamasi, 324 tasiga qo'ltiq tayoq va hassalar bepul berildi, 166 nafar nogironga yangi texnologiya asosida ishlangan protez ortopedik mahsulotlari ishlatib berildi, 1866 pensioner va nogironlarga (ularga bekutilgan) xomiyalar hisobidan umumiy narxi 484,1 mln. so'mlik har xil moddiy yordamlar ko'rsatildi. TMEKlarda 27210 kishi tibbiy-mehnat ekspertiza ko'rigidan o'tkazildi, yani 2009 yilga nisbatan ekspertiza ko'rigidan o'tkazilganlar soni 5776 kishiga, yoki 26,9 foizga kupaygan. Shundan jami nogiron deb topilganlar soni 19388 kishini tashkil qildi va 2009 yilga nisbatan 30 kishiga, yoki 0,2 foizga ko'paygan. Birlamchi nogiron deb topilganlar soni 2009 yilga nisbatan 946 kishiga, yoki 34,6 foizga kamayganligi kuzatildi. Har 10 ming aholiga nisbatan birlamchi nogironlik ko'rsatkichlari o'tgan 2009 yili 16,8 kishini tashkil qilgan bo'lsa, hisobot davrida 10,9 kishini tashkil qildi.

Sog'likni saqlash. Bugungi kunda respublikada 51 shifoxona, 301 ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat yuritmoqda. Kasalxona o'rinlari soni 8649 koya bo'lib har 10 ming kishiga 52,4 o'rindan to'g'ri keladi. Ambulatoriya - poliklinika muassasalari quvvati smenada 23,5 ming qatnovni tashkil qiladi. Shifo maskanlarida 3804 shifokor (har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni 23,1), 16605 o'rta maxsus malumotga ega (har 10 ming kishiga to'g'ri keladigan o'rta medisina xodimlari soni 100,6) tibbiyot xodimlari faoliyat yuritmoqda. Hisobot davrida onalarning bevaqt o'lim ko'rsatkichi 9 nafarni (har bir 100 ming tirik to'g'rilgan chaqolovga 23,5) tashkil qildi, ushbu ko'rsatkich o'tgan 2009 yilda 12 nafarni (har bir 100 ming tirik to'g'rilgan chaqolovga 30,5) tashkil qilgan edi. 2009 yil yakunida 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'lim darajasi har bir 1000 tirik to'g'rilishga nisbatan 13,4 bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yili 12,6 tashkil etdi (9. *Ijtimoiy soha jadvali*).

Xalq talimi va madaniyat. (*tezkor malumot*) Respublikada 322 ta maktabgacha tarbiya muassasalarida 31,9 mingta bolalar tarbiya olmoqda. Bog'cha yoshigacha bolalarning MTM bilan qamrovi 17,7 foizni tashkil qiladi. Respublikada 2010-2011 o'quv yilda 754 umumtalim maktablari bo'lib, unda 255,1 ming o'quvchilar talim olmoqda, va 1 smenada shug'ullanuvchilar qamrovi 66,8 foizni tashkil qildi. 2010-2011 o'quv yilida respublikada 10 ta akademik liseyda 7104 o'quvchi va 91 kasb-hunar kolledjlarida 84289 o'quvchilar talim olmoqda. Ayni paytda respublikada 2 ta oliy talim muassasalari va 4 ta oliy talim muassasasi filiallari bo'lib (TashDAU NF, TashPMI NF, TashATU NF va Tashkent davlat sanat instituti filiallari) unda 16868 ta talabalar talim olmoqda, shundan 15949 tasi kunduzgi guruhlarda. Shu jumladan, shartnoma asosida pul to'lab o'qiydigan talabalar soni 10713 ta talabani tashkil qildi.

Barkamol avlod yili Davlat dasturining bajarilishi

Dasturga muvofiq kasb-hunar kollejlari 250 o'rinli 3 ta yotoqxonalar qurilgan, 100 o'rinli 1 ta yotoqxonalar rekonstruksiya qilingan va 8 ta yotoqxonalarining binolari mukammal tamirlangan. 2 ta bolalar musiqa va sanat maktablari binolari yangidan qurilib (Nukus shahridagi 12-sonli, Qorao'zak tumanidagi 16-sonli) 2 tasida mukammal rekonstruksiya ishlari olib borildi (Nukus shahridagi 1-sonli, Qo'ng'iro't tumanidagi 10-sonli) va o'z vaqtida foydalanishga topshirilgan. 3 ta umumtalim maktablarining sport zallari va Nukus Olimpiya xazinalari kollejining yopiq suzish basseynining qurilishi amalga oshirilgan. Respublikada 5 ta sog'liqni saqlash muassasalarida (Nukus shahrida respublika bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazini va Respublika bolalar silga qarshi sanatoriya, Kegayli, Mo'ynoq va To'rtko'l tumanlarida tibbiyot birlashmalarining binolarida) rekonstruksiya tamirlash ishlari olib borilgan. 2010-2011 yillar mobaynida Nukus shahrida, shu jumladan foydalanilmayotgan binolar, yotoqxonalar va bo'sh turgan xonalar bazasida yosh oilalarga, keyinchalik sotib olgan holda, 32 ta kvartira ijaraga berilishini tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, 2010 yilda Nukus shahri Qaratao' posyolkasi fuqarolar yig'ini va Qaratao' shifoxonasining foydalanilmay turgan binolarini 18 ta yosh oilalarga berish bo'yicha shahar hokimining 2010 yil 18 iyundagi 88/6-sonli qarori qabul qilingan va yosh oilalarga berilgan. Bundan tashqari, Muqimiy ko'chasidagi eski "Qoraqalpog'iston kinofikasi" korxonasining foydalanilmayotgan binosini 6 ta yosh oilalarga berish bo'yicha shahar hokimining 2010 yil 15 dekabrda 166/12-sonli qarori qabul qilingan va yosh oilalarga berildi. Shu bilan, Barkamol avlod yili Davlat dasturi doirasida jami 24 ta yosh oila xonadon bilan taminlangan. Qolgan 8 ta kvartirani 2011 yilda yosh oilalarga ijaraga berilishi rejalashtirilgan. 2009-2010 o'quv yilida 28448 nafar o'quvchi bitirib, ulardan 28028 nafari akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qishga kirgan. Shuningdek, 350 nafari Respublikadan tashqariga ko'chib ketgan, 21 nafari kasalligi sababli talimni davom ettira olmagan, 5 nafari vofot etgan va 44 nafari ayrim bitiruv imtixonlariga qatnashmay sinfida qolgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2009/2010 o'quv yilida 7 ta akademik lisey va 78 ta kasb-hunar kolledjlarida 33020 ta o'quvchilar bitirib, shulardan 28779 nafar bitiruvchilarning bandligi taminlangan, yani 87,2 foiz bitiruvchilar ish bilan taminlangan. 1518 nafar bitiruvchilar (4,6%) oliy talim muassasalariga o'qishga kirganlar. Band bo'lmagan 2723 nafar bitiruvchilar (8,2%) turli sabablarga ko'ra bandligi taminlanmagan (kasalligi, turmushga chiqqanligi, yashash joyini o'zgartirish va boshqa sabablarga ko'ra). Respublika bo'yicha bitiruvchilarning bandligini taminlash ko'rsatkichi 85,5 foizni tashkil etgan bir paytda, Xo'jayli tibbiyot KXX da 72,8 foizni, Nukus mayshiy xizmat va iqtisodiyot KXX da 79,4 foizni, To'rtkul sanoat transport KXX da 82,9 foizni tashkil etgan. [«Iqtisodiyot» bo'liming](#)

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 
- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)